



O'QOTAR QUROLNI, O'Q-DORILARNI, O'QOTAR QUROLNING ASOSIY QISMLARINI, PORTLOVCHI MODDALARNI, PORTLATISH VOSITALARINI YOKI PORTLATISH QURILMALARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA EGALLASH JINOYATI SUBYEKTINING UMUMIY BELGILARI VA ULARNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI

U.A. Ismailov

O'zbekiston Respublikasi

Ichki ishlar vazirligi xodimi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20775600>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 16-iyun 2026 yil
Ma'qullandi: 18-iyun 2026 yil
Nashr qilindi: 20-iyun 2026 yil

KEYWORDS

o'qotar qurol, o'q-dorilar, o'qotar qurolning asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash, jinoyat subyektining umumiy belgilari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, jinoyat huquqining prinsiplari va vazifalari, jinoyat subyekti, jinoiy javobgarlik yoshi, aqli rasolik, jinoyat tarkibi, jismoniy shaxsning javobgarligi.

ABSTRACT

Ushbu ilmiy maqolada o'qotar qurol, o'q-dorilar, o'qotar qurolning asosiy qismlari, portlovchi moddalar, portlatish vositalari yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash jinoyati subyektining umumiy belgilari va ularning konstitutsiyaviy asoslari haqida yoritib o'tilgan.

Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar nafaqat jamiyat, balki davlat xavfsizligiga ham jiddiy tahdid soladi, ularga qarshi samarali kurash olib borish bugungi kunning asosiy talabidir. Shunday xavfli qilmishlardan biri — o'qotar qurolni, o'q-dorilarni, o'qotar qurolning asosiy qismlarini, portlovchi moddalarni, portlatish vositalarini yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallanishidir. Mazkur turdagi jinoyat bevosita, o'g'rilik, firibgarlik, o'zlashtirish, rastrata qilish yoxud mansab mavqegini suiiste'mol qilish, talonchilik, tamagirlik, bosqinchilik yo'li bilan sodir etilishiga zamin yaratishi bilan ahamiyatlidir. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 247-moddasi mazkur jinoyatni alohida tartibga soladi va ijtimoiy xavflilik darajasini, jinoyatning obyektiv hamda subyektiv tomonlarini belgilab beradi.

Jinoyat subyektining jinoyat-huquqiy jihatdan to'g'ri aniqlanishi jinoiy javobgarlikni to'g'ri qo'llash, jazo muqarrarligi va odil sudlov tamoyillariga amal qilishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada Jinoyat kodeksining 247-moddasi doirasida jinoyat subyekti tushunchasi, uning belgilari, yoshi va aqliy holat mezonlari, shuningdek, ushbu jinoyatning boshqa jinoyatlar bilan bog'liqligi atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, ilmiy-nazariy yondashuvlar tahlili asosida subyektning huquqiy maqomiga oid xulosalar bayon etiladi.

Jinoyat to'g'risidagi qonun hujjatlari barcha qonunlar uchun huquqiy asos bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining prinsiplari, umumiy qoidalari va moddalari asosida tuzilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25-moddasiga ko'ra, yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqi va u qonun bilan muhofaza qilinishi, inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyat ekanligi mustahkamlab qo'yilgan. Konstitutsiyaning 20-moddasida davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerakligi belgilab qo'yilgan[1].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yuqorida ko'rsatib o'tilgan, shuningdek, ba'zi og'ir jinoyatlarga qarshi kurash nazarda tutilgan yoki jinoyat-huquqiy muhofazaga muhtoj muayyan ijtimoiy munosabatlar jamiyat uchun alohida ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlangan va muhim shartlarni o'zida aks ettirgan yana boshqa normalar ularni jinoyat qonuniga kiritish uchun bevosita huquqiy asos hisoblanadi.

Bevosita jinoyat huquqining vazifalari va prinsiplari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslanishi muhim qoidadir.

Jinoyat huquqining vazifalari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida aniq belgilangan bo'lib, kodeksning 2-moddasiga ko'ra, jinoyat huquqining vazifalari shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlaridan qo'riqlash, shuningdek jinoyatlarni oldini olish, fuqarolarni respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruxida tarbiyalashdan iboratdir.

Jinoyat huquqining tarbiyaviy funksiyasi O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilish ruhida tarbiyalash vazifasini bajarishga qaratilgan. Bu funksiya fuqarolarning huquqiy ongini oshirish, ularning shaxsi, huquq va erkinliklari qonun bilan himoya qilinganligiga hamda jinoyat sodir qilgan shaxsning jazolanishi mukarrarligiga ishonch ruhida tarbiyalash maqsadini ko'zlaydi.

Jinoyat huquqi prinsiplari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan, qonunning ustuvorligi, ijtimoiy adolat, insonparvarlik, demokratizm, fuqarolarning tengligi, umuminsoniy qadriyatlar va umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalarining ustuvorligi kabi prinsiplarga asoslanadi hamda ulardan kelib chiqadi. Ayni paytda jinoyat huquqining xar bir prinsipi ushbu huquq sohasining tartibga solish uslubi va bajaradigan vazifalari bilan aloqador hamdir.

Jinoyatlar uchun javobgarlik belgilash orqali qonun shaxsning huquq va erkinliklarini, mol-mulkini, jamoat tartibi va xavfsizligini va qonun himoyasida bo'lgan boshqa obyektlarni ximoya qiladi[2].

Jinoyat huquqining asosiy tushunchalaridan biri jinoyat subyekti hisoblanadi. U jinoyat tarkibining to'rt asosiy elementidan biri bo'lib, jinoyat sodir etgan shaxsning kimligi va uning

huquqiy holatini belgilab beradi. Jinoyat subyektini aniqlash orqali shaxsning javobgarligi va unga nisbatan tatbiq etiladigan jazo turi belgilanadi.

Ushbu tadqiqot predmeti sifatida o'qotar qurolni, o'q-dorilarni, o'qotar qurolning asosiy qismlarini, portlovchi moddalarni, portlatish vositalarini yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash jinoyatining subyekti belgilangan bo'lib, biz ushbu jinoyatda nazarda tutilgan qilmishni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi lozim bo'lgan shaxslarning belgilarini atroflicha ko'rib chiqamiz.

J.A. Ibrohimov "jinoyat subyekti - jinoyat sodir etgan muayyan shaxsning jinoiy javobgarligi va uni jazoga tortish masalasini hal qilish amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, mazkur shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish mumkin yo mumkin emasligini aniqlabgina qolmasdan, mazkur subyekt aynan mana shu muayyan holatda javobgar va jazoga loyiqligini aniqlashni ham nazarda tutadi", deb tushuntiradi[3].

Jinoyat subyekti o'ziga xos bo'lgan umumiy belgilar: *qonun bo'yicha belgilangan yoshga yetganlik, aqli rasolik, jismoniy shaxslik*[4] va shularga qo'shimcha sifatida Jinoyat kodeksning moddalarida nazarda tutilgan *biron bir aniq jinoyatni sodir etganlikni nazarda tutish o'rinlidir*, chunki ushbu belgi O'zbekiston Respublikasi JKning 17-moddasi ikkinchi va uchinchi qismlarida[5] to'g'ridan-to'g'ri aks ettirilgan. Bu haqda M.A. Rajabova "ushbu belgilardan birontasining mavjud bo'lmasligi jinoyat subyektining mavjud emasligidan dalolat beradi"[6] deb to'g'ri ta'kidlagan.

M.H. Rustambayev "Jinoyat huquqi nazariyasiga ko'ra har qanday ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilgan, qonunda belgilangan yoshga yetgan va aqli raso jismoniy shaxslar jinoyatning subyekti bo'ladi" deb ta'kidlaydi[7].

Jinoyat qonuniga muvofiq, jinoyat subyekti faqat jismoniy shaxs bo'la oladi va Jinoyat kodeksining 17-moddasida yozilishicha: "Jinoyat sodir etgunga kadar o'n olti yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxslar javobgarlikka tortiladilar". Yuridik shaxs (tashkilot, muassasa, korxon va h.k.)lar jinoyatning subyekti bo'la olmaydi.

Jinoyat subyektining asosiy belgilaridan yana biri qonunda belgilangan yosh bo'lib, muayyan yoshga to'lgan shaxslargina jinoiy javobgarlikka tortiladi[8].

J.A.Ibrohimovning fikriga ko'ra, "insonning ma'lum ruhiy-fiziologik xususiyati - uning yoshi bilan bog'liq bo'ladi. Qonunda jinoiy javobgarlik yoshining belgilanishi, birinchi navbatda shu bilan izohlanadiki, bu holat shaxsning aqliy rivojlanishi, uning o'z harakatlari yuzasidan hisob berishi va ularni boshqarish qobiliyati bilan bog'liq, shuning uchun ham har bir muayyan holatda shaxsning yoshini aniqlash jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni jinoyat subyekti, deb topish uchun zarurdir. Ma'lum yoshga to'lganlik shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishning zaruriy shartlaridan biridir"[9].

Bevosita tadqiq etilayotgan jinoyatning subyektlarini aniqlash bilan bog'liq masalasiga e'tibor qaratsak, unda JKning 17-moddasi ikkinchi qismi qoidasiga muvofiq, JKning 247-moddasida nazarda tutilgan o'qotar qurolni, o'q-dorilarni, o'qotar qurolning asosiy qismlarini, portlovchi moddalarni, portlatish vositalarini yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash jinoyatini sodir etgunga qadar 14 yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxs javobgarlikka tortilishi belgilangan.

R. Kabulov e'tirof etganidek, jinoiy javobgarlik vujudga kelishining minimal yoshini belgilashda, qonun chiqaruvchi inson ongi bilan nafaqat u yoki bu axloq normasini buzish

faktini anglash, balki ijtimoiy qimmatliklarning, tegishli ma'naviy taqiqlarga rioya qilishni, hamda jinoiy jazoning umumiy va maxsus ogohlantirishi maqsadini hisobga oladi[10].

So'zsiz insonda ma'lum yoshga yetgandan keyingina atrofdagi voqealarni qabul qilishi, o'z harakatlariga to'g'ri baho berishi va o'z xohishini kerakli yo'nalishga yo'naltira olish qobiliyati shakllanadi[11].

V.D. Malkovning fikricha, "o'qotar qurol, o'q-dorilar, o'qotar qurolning asosiy qismlari, portlovchi moddalarni, portlatish vositalarini yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash jinoyatining o'spirinlar orasida keng tarqalishi, biologik va psixologik kamolotning o'ziga xos xususiyatlari, yashash sharoitlari, o'spirinlar uchun mavjud bo'lgan katta miqdordagi ma'lumotlardan kelib chiqadi"[12].

E.V. Zayseva ta'kidlashicha, "o'qotar qurol, portlovchi moddalarva portlatish qurilmalari bilan noqonuniy xatti-harakatlarni amalga oshirish xavfi 14 yoshga to'lgan o'spirinlar uchun oldindan aniq, chunki ular bu yoshda nima ruxsat etilgan va taqiqlangan narsalar haqidagi tushunchalar tasavvuriga egadirlar"[13].

Ushbu jinoyat uchun o'n to'rt yoshga to'lganlarning jinoyat subyekti bo'la olishida asosan shu yoshdagilarning ana shu qilmishlarni jinoyat ekanligini bilganligi hamda qonunda ularni sodir etish taqiqlanganligini bilganligi asos qilib olingan[14].

Shu boisdan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 17-moddasiga muvofiq 14 yoshga to'lgan, aqli raso shaxslar o'qotar qurolni, o'q-dorilarni, o'qotar qurolning asosiy qismlarini, portlovchi moddalarni, portlatish vositalarini yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash jinoyatning subyekti hisoblanadilar. Fikrimizcha bu yoshda o'smir mazkur jinoyatni sodir etish vaqtida har bir voqeani to'g'ri qabul qiladi, uning dunyoqarashi va huquqiy fikrlashi shu darajaga yetadiki, u o'z qilmishining xavfli ekanligini to'g'ri baholay oladi.

Qonun chiqaruvchi JK 247-m.da nazarda tutilgan jinoyat uchun javobgarlik yoshini mustahkamlar ekan, bunda shaxs o'zining aqliy va ruhiy rivojlanish darajasiga ko'ra ayni shu yoshdan boshlab ushbu jinoyatning ijtimoiy xavfliligini anglashi mumkinligidan kelib chiqqan. Bunda mazkur yoshda har bir shaxs o'qotar qurolni, o'q-dorilarni, o'qotar qurolning asosiy qismlarini, portlovchi moddalarni, portlatish vositalarini yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallashning ham faktik, ham ijtimoiy xususiyatlarini anglashga qodirligi nazarda tutiladi. "O'smir bironing mol-mulkini o'zlashtirish, odam o'ldirish mumkin emasligini juda erta tushunadi (ilk ijtimoiylashuv jarayoni bunga imkoniyat yaratadi). Biroq, huquqiy ong o'smirda u muayyan yoshga to'lgandagina paydo bo'ladi. Bunda o'smir o'z qilmishlarining faktik tomoninigina emas, balki ularning ijtimoiy ahamiyatini ham anglab yetishga qodir bo'ladi"[15].

M.M.Qalandarov o'z tadqiqot ishida, "JKning 247-moddasida nazarda tutilgan jinoyat subyektining o'n to'rt yosh etib belgilanganligining ijtimoiy zarurati, yana shu bilan asoslanadiki, o'qotar qurolni, o'q-dorilarni, o'qotar qurolning asosiy qismlarini, portlovchi moddalarni, portlatish vositalarini yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash jinoyatining sodir etish usuli talon-toroj qilish harakatlari (JKning 164-169 m.)da namoyon bo'lishidir. Ya'ni JKning 164-, 165-, 166- va 169-moddalarida belgilangan jinoyatlarning subyekt yoshi 14 yoshdan belgilangandir. Agarda biz umumiy va maxsus normalar o'rtasidagi muvofiqligiga e'tibor beradigan bo'lsak, maxsus normalar doimo umumiy qism normalariga nisbatan javobgarlikning og'irlashtiruvchi holatlarda namoyon bo'ladi[16], deb tushuntiradi.

Jinoyat kodeksining 17-moddasi (jismoniy shaxslarning javobgarligi)ga ko'ra, har qanday inson ham jinoyatning subyekti bo'la olmaydi. Shaxsning qonunda belgilangan subyekt yoshiga yetganligidan tashqari, u o'z harakatlarini boshqara olishi va harakati tufayli kelib chiqadigan ijtimoiy xavfli oqibatni ham anglashi kerak bo'ladi.

Jinoyat huquqida JKning 247-moddasida nazarda tutilgan jinoyat uchun qonun chiqaruvchi tomonidan javobgarlik yoshini o'n to'rt yoshdan belgilangani yuzasidan olimlar tomonidan yakdil xulosaga kelingan. Zero, A.S. Yakubov "yoshning minimal, ya'ni 14 yosh chegarasini belgilashda, qonun chiqaruvchi tomonidan jinoyat qonunida belgilangan yoshga yetgunga qadar, shaxs JK bilan taqiqlangan u yoki bu qilmishning ijtimoiy xavfliligini anglashi, o'z irodasini, o'z jinoiy xatti-harakatlarini sodir etishning birinchi damlaridayoq nazorat qilish qobiliyatiga ega bo'lishidan dalolat beruvchi shaxsning psixologik va ijtimoiy rivojlanish xususiyatlarini, shuningdek kriminologik mezonlarini[17] hisobga olgan holda o'rnatiladi" deb qaraydi.

Jinoyat subyektining zaruriy belgilaridan yana biri bu aqli rasolik hisoblanadi, ya'ni jinoyat subyektini jinoiy javobgarlikka tortish uchun u o'zi sodir etgan qilmish (harakat yoki harakatsizlik)ning ijtimoiy xavfliligini anglashi va uni boshqara olish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Anglash bu ruhiyatning aqliy (intellektual) va o'z xulq-atvorini boshqara olish kabi irodaviy jihatlarda ifodalanadi. Shaxsning ruhiy holatidagi ushbu faoliyatlardan birining buzilishi aqli rasolikni inkor etadi[18].

Amaldagi O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonuniga binoan o'z harakati (yoki harakatsizligi)ning haqiqiy xususiyatini, ijtimoiy xavfliligini anglagan, o'z harakatlarini boshqara olgan aqli raso shaxslar jinoyatning subyekti bo'ladi[19].

Bu haqda Q.R.Abdurasulova "aqli rasolik – ayb va javobgarlikka tortish – zaruriy sharti hisoblanadi"[20], deb to'g'ri ta'kidlaydi.

Jinoyat kodeksi 18-moddasining 1-qismiga muvofiq, jinoyat sodir etish vaqtida o'z qilmishining ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglagan va o'z harakatlarini boshqara olgan shaxs aqli raso deb topiladi. Yuridik adabiyotlarda, "aqli rasolik" tushunchasi o'zining yuridik mezoniga va o'z navbatida, uning ikki turdagi, ya'ni aqliy (intellektual) va irodaviy belgilariga ega bo'lishi bilan tavsiflanishi lozim[21] ligi qayd etilgan.

Aqli rasolikning aqliy (intellektual) belgisi shaxs tomonidan sodir etilgan qilmishning ijtimoiy xavflilik xususiyatini anglab yetish qobiliyatidan iborat bo'ladi. Irodaviy belgi esa shaxsning o'z xulq-atvorini boshqarish layoqatini anglatadi.

V.S.Komissarov qayd etganidek, aqli rasolik jinoyat sodir etgan shaxs ruhiyatining shunday bir holatini o'zida ifodalaydiki, bunda u o'z harakatlarining haqiqiy xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini anglaydi va ularni boshqarishga qodir bo'ladi[22]. Shu tufayli ham, ko'rib chiqilayotgan jinoyatni sodir etishda ayblanayotgan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortishda uning ruhiy sog'lomlik darajasiga e'tibor berish kerak.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, o'qotar qurolni, o'q-dorilarni, o'qotar qurolning asosiy qismlarini, portlovchi moddalarni, portlatish vositalarini yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash jinoyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslangan holda jinoyat huquqining vazifalari va prinsiplaridan kelib chiqib, ushbu jinoyatning subyekti qonunda belgilangan yoshga yetgan va aqli raso jismoniy shaxslar hisoblanadi. O'qotar qurolni, o'q-dorilarni, o'qotar qurolning asosiy qismlarini, portlovchi moddalarni, portlatish vositalarini yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallash jinoyatining subyekti mazkur

jinoyat tarkibining zaruriy elementidir, ya'ni jinoyat sodir qilgan shaxs bo'lmasa, o'z-o'zidan jinoyat ham bo'lmaydi. Demak o'qotar qurolni, o'q-dorilarni, o'qotar qurolning asosiy qismlarini, portlovchi moddalarni, portlatish vositalarini yoki portlatish qurilmalarini qonunga xilof ravishda egallashda "Jinoyat sodir etgunga kadar o'n to'rt yoshga to'lgan aqli raso jismoniy shaxslar javobgarlikka tortiladilar".;

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://lex.uz/docs/6445145>
2. Rustambayev M.H. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. 2-nashr. – T.: "ILM ZIYO", 2006.
3. Ibrohimov J.A. "Terrorizm bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari" Dissertatsiya. 12.00.08. – T.,2020. 97–B.
4. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. I Tom. Umumiy qism, Jinoyat to'g'risida ta'limot: Oliy o'quv muassasalari uchun darslik. – T.: "ILM ZIYO", 2010. – 213. B.; Rajabova M.A. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish muammolari. – T. 2002. – 253. B.
5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // <https://www.lex.uz/acts/111453>.
6. Rajabova M.A. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish muammolari. – T. 2002. – 253. B.
7. Rustambayev M.H. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T.: "ILM ZIYO", 2006. – 176. B.
8. Rustambayev M.H., Ahrorov B. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Kollejlar uchun darslik. To'ldirilgan va qayta ishlangan 2-nashri. – T.: "ILM ZIYO", 2011. – 117. B.
9. Ibrohimov J.A. "Terrorizm bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari" Dissertatsiya. 12.00.08. – T.,2020. 97–B.
10. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Darslik / Mualliflar jamoasi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2004. – 153. B.; Рустамбаев М.Х. Комментарий к Уголовному кодексу Республики Узбекистан. Общая часть / Под общ.ред. А.А. Палван-Заде. – Тошкент: 2004. – С. 93.
11. Rustambayev M.H., Ahrorov B. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Kollejlar uchun darslik. To'ldirilgan va qayta ishlangan 2-nashri. – T.: "ILM ZIYO", 2011. – 117. B.
12. Малков С.М. Уголовная ответственность за хищение оружия, боеприпасов, взрывчатых веществ и взрывных устройств: Дис... канд. юрид. наук: 12.00.08: Омск, 2000 – С. 146.
13. Зайцева Е.В. Уголовно-правовые средства противодействия незаконному обороту оружия и его применения в совершении преступления. Дисс. ... канд. юрид. наук. – Омск, 2014. – С. 107.
14. Usmonaliyev M. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T., "Yangi asr avlodi", – 2010. – 243. B.
15. Российское уголовное право. Общая част. / Под ред. В.С. Комиссарова. – СПб., 2005. – С. 206.
16. Qalandarov M.M. "O'qotar qurolni, o'q-dorilarni, o'qotar qurolning asosiy qismlarini, portlovchi moddalarni, portlatish vositalarini yoki portlatish qurilmalarining g'ayriqonuniy muomalasiga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy choralari" Dissertatsiya. 12.00.08. – T., 2023. – 125. B.

17. Уголовный кодекс Республики Узбекистан: научно-практический комментарий / А.С. Якубов, М.Х. Рустамбаев и др.; отв. Ред. А.С. Якубов. – Т.: “Адолат”, 1996. – С. 36.
18. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish: IIV Oliy ta’lim muassasalari uchun darslik / R. Kabulov, A.A. Otajonov, I.A. Sottiyev va bosh. – Т.: O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 73. В.
19. Usmonaliyev M. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o’quv yurtlari uchun darslik. —Т., “Yangi asr avlodi”, – 2010. – 236. В.
20. Abdurasulova Q.R. Jinoyatning maxsus subyekt. O’quv qo’llanma. – Toshkent: TDYuI, 2005. – 6. В.
21. Rustambayev M.H. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksini sharhlar (Umumiy qism) Т., 2006. – 251. В., Abdurasulova X.R. Jinoyatning maxsus subyekt. Т., 2005. – 37. В., Якубов А.С. Теоретические проблемы формирования правовой основы учения о преступлении: предпосылки. реальность, перспективы, 1996. С. 43; va boshq.
22. Российское уголовное право. Общая част. / Под ред. В.С. Комиссарова. – СПб., 2005. – С. 140.

